

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11031236>

AMALIY TOPSHIRIQLARNI BAJARISHDA MOBIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Ismoilova Mahsuma Narziqulovna

Buxoro davlat universiteti

Axborot texnologiyalari fakulteti katta o'qituvchisi

<https://orcid.org/0000-0003-0496-9217>

***Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lim tizimi shakllanayotgan bir davrda raqamli texnologiyalardan amaliyotda foydalanish, virtual texnologiyalarni ommalashtirish, ta'limning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta'lim jarayonida qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga, belgilangan o'quv dasturlarining o'quvchilar tomonidan to'la bajarilishiga, o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlarini ortirishiga xizmat qiladi. Ayni paytda o'quvchilarni dars jarayonida mobil texnologiyalardan samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish dolzarb muammolardan biri sifatida tahlil qilinmoqda. Bu kabi muammolarni yechimi sifatida, o'quvchilarning mobil texnologiyalardan foydalangan holda fanlarni, shu jumladan amaliy topshiriqlarni o'rgatish metodikasini ishlab chiqish orqali erishish mumkin. Ushbu maqolada sinf sharoitida amaliy topshiriqlarni bajarishda foydalaniladigan mobil texnologiyalarga asoslangan o'qitish metodlarining maqsadi, foydalanish shartlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, kutiladigan natija va unga erishish mezonlari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** mobil texnologiyalar, mobil ta'lim, o'qitish metodlari, mobil ta'lim metodlari.*

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОБИЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ

Исмоилова Махсума Нарзикуловна

старший преподаватель, факультет Информационных технологий,

Бухарский государственный университет

***Аннотация:** В настоящее время, когда формируется современная система образования, особое внимание уделяется использованию цифровых технологий на практике, популяризации виртуальных технологий, созданию новых методических моделей обучения и их применению в образовательном процессе. Это, в свою очередь, послужит коренному улучшению качества образования, полному выполнению учащимися установленных учебных программ, повышению*

личной заинтересованности обучающихся. Поэтому одной из актуальных проблем образования в настоящее время является повышение культуры эффективного использования мобильных технологий учащимися. Решение подобных задач может быть достигнуто путем разработки методики обучения учащихся предметам, в том числе практическим заданиям, с использованием мобильных технологий. В данной статье рассматривается назначение, условия использования, деятельность учителя и ученика, ожидаемый результат и критерии его достижения методов обучения на основе мобильных технологий, используемых при выполнении практических заданий в аудиторных условиях.

Ключевые слова: мобильные технологии, мобильное образование, методы обучения, методы мобильного образования.

METHODOLOGY FOR USING MOBILE TECHNOLOGIES IN PERFORMING PRACTICAL TASKS

Ismoilova Mahsuma Narziqulovna

Senior Lecturer, Faculty of Information Technology,
Bukhara State University

Abstract: Currently, when the modern education system is being formed, special attention is paid to the use of digital technologies in practice, the popularization of virtual technologies, the creation of new methodological models of teaching and their application in the educational process. This, in turn, will serve to radically improve the quality of education, the full implementation by students of the established curricula, and increase the personal interest of students. Therefore, one of the urgent problems of education at present is to increase the culture of effective use of mobile technologies by students. The solution of such problems can be achieved by developing a methodology for teaching students subjects, including practical tasks, using mobile technologies. This article discusses the purpose, conditions of use, the activities of the teacher and student, the expected result and criteria for achieving it of teaching methods based on mobile technologies used when performing practical tasks in the classroom.

Keywords: mobile technologies, mobile education, teaching methods, methods of mobile education.

Kirish.


Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, mobil texnologiyalar ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ta'sirlashuvni tashkil etish uchun katta imkoniyatlarni yaratmoqda. Mobil texnologiyalar ta'lim muassasalarida o'qitish metodlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, chunki ular o'quvchi faoliyatini maqsad sari yo'naltirib, o'qituvchi va o'quvchi

faoliyatini tashkil etish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Texnologik asosi mobil texnologiyalarga asoslangan didaktik masalani yechish metodini mobil ta'lim sifatida o'rganiladi. Shu ma'noda mobil ta'lim elektron ta'limning bir turi hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan mobil ta'lim o'quvchilarga mobil texnologiyalar va qurilmalar yordamida maxsus tashkil etilgan o'quv materiallarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Didaktikadagi o'quv jarayoniga qo'llanadigan har bir o'qitish metodi aniq bir fan mazmuni bilan bog'liq bo'lmagan holda o'ziga xos xususiyatlariga va hal etiladigan didaktik masalalarga bog'liq holda turlicha samaradorlikka ega. Bu esa o'z navbatida, ta'lim muassasalarida mobil texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan o'qitish metodlari tizimini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Metodlar.

Mobil ta'lim metodlari tizimi deganda esa turli xil didaktik muammolarni yechishda bir-birini to'ldiruvchi va yagona texnologik asosga ega bo'lgan o'qitish metodlari majmuini tushunamiz. Quyidagi rasmda dars jarayonida amaliy topshiriqlarni bajarishda mobil texnologiyalarining ahamiyati ko'rsatib berilgan:



Bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni amalga oshirish bosqichlari bo'lib, motivatsiyani oshirish, mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish, amaliy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish, kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi.

Mobil ta'lim metodlarni 2ga bo'lish mumkin: sinfda va sinfdan tashqaridagi mashg'ulotlarda qo'llaniladigan turlar. Ushbu maqolada sinfda amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan mobil texnologiyalarga asoslangan o'qitish metodlarini tahlil qilingan.

Mobil qidiruv metodi. Hozirgi zamonda turli axborotlarni qidirish va ularning har xil ko'rinishlari bilan ishlash zamonaviy mutaxassis egallashi lozim bo'lgan muhim ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Internet bilan ishlash imkoni bo'lgan mobil qurilmalarda matnli so'rovlardan tortib, ovozli va rasmi qidiruv so'rovlargacha foydalanish imkoniyati mavjudligi sababli ma'lumotlarni qidirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etmoqda. Ushbu metodni qo'llashdan maqsad axborot – kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlashni o'zlashtirishni, yangi o'quv materiallarining o'zlashtirilishi ta'minlashdan iborat bo'lib hisoblanadi. Ushbu metoddan foydalanish Internet resurslari va qidiruv xizmatlaridan foydalanish talablarini o'z ichiga oladi. Bunda o'qituvchi faoliyati qo'yilgan muammolarni hal qilish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni topishni talab qiluvchi muammoli vaziyatlarni yaratishdan iborat bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar faoliyati esa eng yaxshi qidirish usullari va xizmatlarini tanlash, muammo yoki savolning yechimini topish bo'lib hisoblanadi. Natijani nazorat qilish usuli va unga erishish mezonlari mobil qidiruv texnologiyasini o'rganishdan iboratdir.

Mobil loyihalashtirish metodi. Zamonaviy mobil qurilmalar va shu bilan birgalikda bulutli texnologiyalar ta'lim oluvchilarning loyiha bilan ishlash faoliyatini yuqori darajalarda tashkil etish imkonini beradi, chunki ular doimo yangi vositalarni va qulay tashkiliy shaklni ta'minlab beradi. Misol uchun, hozirgi zamonaviy barcha smartfonlar kompas, navigator, xarita, kamera va boshqa ilovalarga ega. O'z navbatida, bulutli ma'lumotlarni saqlash o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasida tezkor ma'lumot almashish imkoniyatini yaratadi. Ushbu metodni qo'llashdan maqsad individual va guruhli loyihalash hamda tadqiqot ishlarini bajarishdan iborat bo'lib, bu metoddan foydalanish shartlari maqsadli platformalar sifatida mobil qurilmalarning, shuningdek o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida masofadan ma'lumot almashish mexanizmlarining mavjudligidan iboratdir. Bunda o'qituvchi faoliyati o'quvchilarning loyiha va tadqiqot faoliyatini tashkil etish; loyiha ishining maqsadlariga erishishda o'quvchilarga yordam berishdan iborat bo'lsa, o'quvchilar faoliyati loyiha va tadqiqot vazifalarini (individual va guruh ishning bir qismi sifatida) tahlil qilishdan iborat bo'lib hisoblanadi.

Podkast metodi. Videokastlar va skrinkastlar metodlari o'quvchilarga, bir tomondan, dasturiy mahsulotlar bilan individual rivojlanish darajasida tanishish, muammoli vaziyatlarda to'xtash va orqaga qaytish, ikkinchi tomondan, podkastlar

shaklida o'z hisobotlarini yaratish, ijodiy qobiliyatlarni namoyon yetish imkonini beradi. Podkastlardan foydalanish o'quv jarayoniga xilma-xillikni olib kiradi va shu bilan ta'lim oluvchilarning dars mazmunini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Metodning maqsadi: ta'lim oluvchilarda dasturiy mahsulotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, dasturiy ta'minot bilan ishlashdan iborat. Metodni qo'llash shartlari: videoyozuv funksiyasiga ega mobil qurilmalarning universalligi; videotasvir va skrinkasting bo'yicha o'quvchilarda ko'nikmalar mavjudligi; videolarni nashr etish uchun bulutli muhitdan foydalanish mumkinligi. O'qituvchi faoliyati: podkastlar shaklida bajarish uchun vazifalarni taqsimlash; bajarilgan ish va ta'lim oluvchi harakatining to'g'rilanib borishini kuzatib borish. O'quvchilar faoliyati: vazifalarni bajarish va video yoki skrinkasting shaklida hisobot tayyorlash. Natijani nazorat qilish usuli va unga erishish mezonlari: o'quvchilarning dasturiy mahsulotlarni o'rganish sharoitida podkastlardan foydalanishi; dasturiy mahsulotlarni o'rganish bilan bog'liq uy vazifasi haqida hisobot shakllari sifatida bulutli skrinkastlar hamda videokastlardan foydalanishi.

Bulutli tadqiqot metodi. Bu metodning o'ziga xosligi shundan iboratki, o'quvchilar auditoriyada o'quvchilar oldida chiqish qilishi va ma'ruza tayyorlash uchun qandaydir o'quv mavzusi yoki muammoli masalani birgalikda yoki alohida o'rganadilar. Mobil va bulutli texnologiyalar bir nechta o'quvchi va o'qituvchilar tomonidan bir vaqtning o'zida tahrir qilinadigan qo'shma elektron hujjatlar va taqdimotlar yaratish imkonini beradi. Guruh ishini jamoa ichida tashkil etishda har bir o'quvchi o'ziga tegishli qismni o'rganib, kerakli materialni to'plab, bulutli hujjatiga joylashtiradi, so'ngra to'plangan qismlar asosida guruhning umumiy hisoboti tuziladi. Ishlab chiqilgan bulutli materiallarga mustaqil kirish vaqti va joyi tufayli bulutli tadqiqot usuli auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda qo'llaniladi. Ushbu metodning maqsadi qo'yilgan ta'limiy vazifalarni hal etish uchun ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligini tashkil etishdan iborat bo'lib hisoblanadi. Metoddan foydalanish shartlari o'quvchilar uchun mavjud bulutga asoslangan materiallarning va internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan hisoblash qurilmasining mavjudligidir. Bunda o'qituvchi faoliyati: bulutli hujjatlarni tayyorlash va o'quvchilarga havolalarni tarqatish, bulutli muhitda amalga oshirish uchun o'quv vazifalarni tayyorlashdan va o'quvchilar faoliyati bulutli muhitda amaliy vazifani bajarish; natijani nazorat qilish usuli va unga erishish mezonlari: ta'lim vazifalarini hal qilish jarayonida birgalikda bulutli resurslaridan faol foydalanishdan iborat bo'ladi.

Natijalar. Mulohaza.

Mobil ta'lim asosida dars tashkil etilganda dars mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatlari yetarli darajada kengaytira olish imkoniyati tug'iladi, ta'lim olish vaqtini

belgilangan chegaralaridan ham oshirish imkoni yaratiladi. Raqamlashayotgan jamiyatda axborot oqimining psixologik ta'siri juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u hayotiy faoliyatda shaxs idrok va tafakkuri shakllanishi qay darajada bo'lishini belgilab berish xususiyatiga ham egaligini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonida ham raqamlashtirish jaryonini zamon talabidan kelib chiqqan holda tezlashtirish yoki moslashtirish zarur. Ta'lim jarayonida mobil qurilmalarning ahamiyati o'quvchilarning raqamli ta'limga yo'naltirilgan resurslardan foydalana olishi, muloqot qilishi, hamkorlik qilishi bilan baholanadi. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga yangi axborot- kommunikatsiya texnologiyalari negizida yaratilgan elektron ta'lim resurslarini agarda ular aniq didaktik vazifalarni yechishga yo'naltirilgan yangi imkoniyatlarni taqdim etgan vaqtda joriy etish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. МН Исмоилова, ЗШ Султонова. Требования к методике обучения// Ученый XXI века. № 3-2 (38). 2018 . С 84-88.
2. Исмоилова М.Н. THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGY IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES// Ученый XXI века. № 11 (46). 2018. С 55-58.
3. U Khalikova, M Ismoilova. Pedagogical technologies in teaching mathematics// Humanities in the 21st century: scientific problems and searching for effective humanist technologies. 2018. С.44-45
4. Исмоилова М.Н.,Тураева Г.Х. Методы обучения на основе мобильных технологий для изложения новых учебных материалов // Вестник Науки и образования. 2021, №8(111), Стр. 65-67.
5. Ismoilova Mahsuma Narziqulovna, Barrayeva Sevara Shoim qizi, Samiyeva Gulshan Alisher qizi. THE USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS// International Conference BRIDGE TO SCIENCE: RESEARCH WORKS. September. 10 - December. 15. 2020. San Francisco, California, USA. 95-97 p